

## Arxeologik tadqiqotlar natijalari: 2020-yil sarhisobi

O'zR FA Milliy arxeologiya markazi va Markaz filiali Samarqand arxeologiya institutida O'zbekiston Respublikasi hududida 2020-yilda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalariga bag'ishlangan hisobot sessiyasi bo'lib o'tdi.



Pandemiya munosabati bilan respublika hududida 15 ga yaqin ekspeditsiyalar faoliyat olib borgan. Sessiyada olib borilgan tadqiqotlar natijalari, olingan yangi ilmiy xulosalar, arxeologik yodgorliklarning saqlanish holati va kelajakda oldinga qo'yilgan vazifalar to'g'risida batafsil to'xtalib o'tildi.



Hisobot sessiyasida ma'ruzasi bilan qatnashgan ishtirokchilarning hisobotlari tahlil qilindi hamda 2021-yil

dala tadqiqotlari mavsumiga chiqish borasidagi tashkiliy va amaliy ishlar muhokama qilindi.